



G'AFUR G'ULOM ASARLARI TAHLILI. ULARDA HUQUQIY MASALALAR HAMDA ULARNING YURISTLAR HAYOTIDAGI O'RNI

Sharipova Dilbar Farxod qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti jinoiy odil-sudlov
fakulteti 2-kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7721142>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 01- mart 2023 yil

Ma'qullandi: 05-mart 2023 yil

Nashr qilindi: 11-mart 2023 yil

KEY WORDS

ijod, vatanparvarlik, xalq, "Mushtum", "Ko'kan", "Dinamo", "O'g'rigina bolam".

ABSTRACT

Maqolada O'zbekiston davlat arbobi, xalq yozuvchisi G'afur G'ulom ijodi va uning hayot yo'li haqida batafsil ma'lumotlar bayon etilib tahlil qilingan. Shuningdek, yozuvchi ijodida vatanga bo'lgan muhabbat, vatanparvarlik ruhiyati oshirish uchun olib borgan ijodiy faoliyati haqida fikr-mulohazalar bayon etilgan. Bundan tashqari, maqolada o'zbek adabiyotining yorqin vakili, akademik, yozuvchi va shoir G'afur G'ulomning ijodida huquq masalalari tahlil qilingan.

G'afur G'ulom o'zbek adabiyotining yirik nomoyondalaridan biri. Ittifoq Davlat va Lenin mukofotlarining laureate, O'zbekiston davlat arbobi hisoblanadi. G'afur G'ulom bolalik chog'laridan juda ko'p qiyinchiliklarga duch keldi. To'qqiz yoshida otasidan yetim qolgan G'afur avval eski maktabda, so'ngra rus-tuzem maktabida ta'lim oldi. U Oktabr to'ntarishidan keyingi yillarda muallimlar tayyorlov kursini bitirib, "yangi usul"dagi maktablarda o'qituvchilik qildi. 1923-yildan bolalar uyida mudir va tarbiyachi, so'ng "Kambag'al dehqon", "Qizil O'zbekiston", "Sharq haqiqati" ro'znomalarining muharririyatlarida ishladi. Ro'znoma uning uchun dorilfunun rolini o'ynadi. Uning mamlakatni himoya qilish haqidagi tantanavor qasidalari, o'tmish sarqitlarini qoralovchi hajviy she'rlari va xalqning kundalik ijodiy mehnatini olqishlovchi asarlaridan jamlangan "Dinamo" va "Tirik qo'shiqlar" nomli dastlabki she'riy to'plamlari 1931-1932 yillarda chop etildi. Shoir liro-epik janrlarida (1930- 1935) "Ko'kan" poemasini, "To'y", "Ikki vasiqa" balladalarini yaratdi.

Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 24-avgustdagi 502-sonli qarori asosida adiblar xiyobonida haykallari o'rnatilgan atoqli yozuvchi va shoirlarning ibratli hayoti va ijodini chuqur o'rganish hamda targ'ib qilish oliy ta'lim muassasalariga birlashtirildi¹. Akademik G'afur G'ulomning hayoti va ijodini o'rganish vazifasi Toshkent davlat yuridik universitetiga yuklatildi. Adibning asarlari bo'lajak

¹ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar "Mahkamasining 502-son 24.08.2020. Atoqli adiblar va mutafakkirlarimiz ijodiy merosini yoshlar o'rtasida targ'ib qilish hamda adiblar xiyobonidan samarali foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori // <https://lex.uz/docs/4966477>

huquqshunoslar uchun o'ziga xos maktab vazifasini o'taydi. Bir qarashda uning asarlarida huquq masalalari yoritilmagandek ko'rinadi. Ammo chuqurroq tahlil qilar ekanmiz, uning asarlari nafaqat adabiyot uchun, balki huquq uchun ahamiyatli ekanligiga guvoh bo'lamiz. Adib ijodidan, u yozgan asarlar, hikoya va qissalarida adib yashagan davrdagi insonlar hayoti, ijtimoiy-siyosiy ahvol haqida ma'lumotlar olishimiz mumkin. Xususan, adibning "Mening o'g'rigini bolam" voqeyiy hikoyasida adibning ko'rgan-kechirganlari, XX asr boshlaridagi mamlakatdagi vaziyat, jamiyat hayotidagi qiyinchiliklar, insonlarning bir burda non topish uchun o'zini o'qqa-cho'qqa urganligi, hattoki, noqonuniy ishlarni qilishga majbur bo'lganligi haqida bayon qilingan. Asardagi voqealar birinchi jahon urushi davrida, aniqrog'i 1917-yilda sodir bo'lgan bo'lib, 9 yoshida otasidan ayrilgan G'afur G'ulom 15 yoshida, ya'ni hikoyadagi voqealar yuz berayotgan vaqtga kelib onasidan ham ayriladi. G'afur G'ulom oilada to'ng'ich farzand bo'lib, uning 3 nafar singlisi bo'lgan. To'rt yetimning taqdiridan xavotir olgan G'afur G'ulomning katta onasi Roqiya bibi nabiralaridan xabar olib turadi. Kunlarning birida yetimlar uxlayotganda ularning uyiga o'g'ri keladi, yetimlar bilan birga bo'lgan Roqiya bibi tomida yurgan o'g'ri payqab qoladi va o'g'ri bilan suhbatlashadi. G'afur G'ulom Roqiya bibi va o'g'ri bilan suhbat orqali kitobxoniga faqat davrning murakkabligini tushuntiribgina qolmay, huquq va axloq masalalariga alohida e'tibor qaratishga chorlaydi. Hikoyada Roqiya bibining o'g'riga qarata "O'g'rigina bolam, biror boshqa kasbni qilsang bo'lmaydimi?" deya aytgan gaplari, albatta, kitobxonni g'ayriqonuniy yo'ldan tiyilishga undaydi. Ta'kidlaganimizdek, o'g'rilik qilish nafaqat axloq tamoyillariga, balki huquqqa ham xilof. Zamonaviy qonunchiligimizda o'g'irlik uchun jinoiy javobgarlik belgilangan².

Huquq normasi qoida sifatida o'rnatiladi va huquq normasini buzish qonunda belgilab qo'yilgan muayyan javobgarlikni keltirib chiqaradi, axloq normalari esa insonlar ongida odat bo'lib shakllanadi va u jamoatchilik tomonidan nazorat qilinadi. Lekin har qanday huquq normasi avval axloq normasi sifatida jamiyatda shakllanadi, keyin esa uning qonuniy asoslari hamda javobgarliklari normalar bilan belgilanadi³. O'zbek xalqi orasida o'zgarlar moliga ko'z olaytirmaslik qadriyat sifatida shakllanib ulgurgan. Xo'sh, o'sha davrda insonlar ongida axloq normasi sifatida shakllangan tamoyilning buzilishiga nima sabab bo'ldi? O'g'ri bilan kampirning savoliga "Nima kasb qilay? Hamma kasblarning bozor kasod bo'ldi. Ota kasbim kavushdo'zlikni qilay desam, kavushning masallig'i bitib chiqqan kavushdan uch baravar qimmat. Hammolik qilay desam, hozir avvalgidek qoplab g'alla, sabzi-sholg'om oladigan badavlatlarning tuxumi qurigan. Bitta man emas buvi mahalladagi hamma kosiblarning, pichoqchilar, ko'nchilar, bo'zchilar, maktab domlari, mullavachchalarning ham ahvoli shunaqa."⁴ deya bergan javobidan urushning qancha-qancha insonlarga azob bergani, insonlar hayotining qanchalik og'ir bo'lganligi anglashiladi. Ammo shunday odamlar ham shubhasiz bo'lganki, ularga zamon olib kelgan qiyinchiliklar ta'sir qilmagan. Hikoyada ham ana shunday insonlarning nomlari sanaladi.

² O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi

³ Odilqoriyev. Davlat va huquq nazariyasi-darslik, T: TDYU

⁴ G'afur G'ulom. Tanlangan asarlar. Nazm va nasr.-T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2021. - 352 b.

Kampirning o'g'riga "Nega badavlatroqodamlarning uyiga o'g'irlikka tushmaysan?" deya bergan savoliga "Ularning paxsasi sakkiz qavat, eshiklari temirdan, har bittasining uyida ikkita, uchta eshakday-eshakday itlari bor. Odilxo'jaboyning uyida miltiq ushlagan gorodovoy turadi." deb bergan javobidan ana shunday og'ir davrda ham farovon yashagan insonlar bo'lganligi ko'zga tashlanadi. Odamlar qiyinchilik bilan kun ko'rayotgan, yetimlar "Amaki, non bering" deya och-nochor nola qilayotgan bir vaqtda hech qanday qiyinchiliklarni ko'rmay yashayotgan insonlar qanday qilib bunday to'kin hayotga erishishdi ekan? Bunga yagona javob bor. Bunday insonlar o'zganing haqqidan qo'rqmaydigan, haromdan tiyilmaydigan, qonunni chetga surib, o'z maqsadlariga erishish uchun hech narsadan tap tortmaydigan, boshqalarning hisobidan yashaydigan insonlardir. Ular bunday hayotga qonunni chetlab o'tish orqali erishganligi shubhasizdir. Noqonuniy yo'llar orqali pul topish, shubhasiz, huquq va axloqqa zid. O'g'ringing Rahmonxo'ja ellikboshiga sirlarini aytmasligi uchun xo'roz olib borib berganligi, 83 so'm pul jamg'arib pora berganligi, ellikboshining ishni bosdi-bosdi qilganligi o'sha davrdagi huquqiy tamoyillarning buzilishiga misol bo'la oladi. Asarda Roqiya buvining o'g'riga kecha tog'ang berib ketgan ikkita zog'ora bor, pastga tush choy ichamiz degan gaplariga javoban o'g'ringing kun yorishib qolsa, meni tanib qolasiz, uyalaman deb aytishi, kampirning qutlug' uydan quruq ketma, yarim pudlik qozon bor, shuni olib ket, sotib bir kuningga yaratarsan deya aytganlariga "- Yo'q, bu qozon yetimlarning o'ziga buyursin. To'ylarida o'ynab-kulib xizmat qilaylik" deb javob qaytarishi o'g'ringing oz bo'lsa-da, vijdonli ekanligini, bu ishni rostan ham majburligidan qilayotganligini ko'rsatadi. Shu o'rinda savol tug'iladi. Aslida o'g'ri kim? Nochor xalqning rizqini yeyayotgan, o'zganing haqqidan qo'rqmayotgan Rahmonxo'jaga o'xshagan mansabdorlar emasmi, haqiqiy o'g'rilar? Jamiyatda nochorlarning borligi, ularning haqqini yeyayotganlarning borligidan dalolat beradi. Aytish mumkinki, Rahmonxo'jaga o'xshash odamlarni xalq o'g'ri deb atamasa-da, ammo ana o'shalar haqiqiy o'g'rilardir. Ularning ko'ra-bila turib, ter to'kmasdan non topishga qiynalayotgan odamlarni talashi, ularning moliga ko'z olaytirishi, har narsadan "foyda" olib qolishga urinishi haqiqiy o'g'rilikdir.

G'afur G'ulom XX asrning 20-yillardagi she'rlarida asosiy e'tiborini yangi jamiyatni qaror topib kelayotgan yangicha munosabatlarini, talablarini kuylashga, eskilik deb baholanayotgan tushunchalarini tanqid etishga qaratdi. Bu davr she'rlarida badiiylikdan ko'ra bayonchilik, ehtirozdan ko'ra e'tirof ustunlik qiluvchi she'rlar ham talaygina edi. Xalq va Davlat hayotini aks ettirish 30-yillardan shoir asarlarining yetakchi xususiyatlariga aylana bordi. Mazkur xususiyat, ayniqsa, "Turksib yo'llarida" she'ri va "Ko'kan" dostonida yaqqol ko'zga tashlandi. "Ko'kan" dostoni 20-yillar oxiri, 30-yillar boshlaridagi davr va xalq hayotini badiiy aks ettirdi. Ayni vaqtda shu tamoyilni kuchaytirish va mustahkamlashda muhim mafkuraviy rol o'ynaydi. To'g'ri, jamoa xo'jaligiga o'tish va o'tkazishda majbur qilish, shuningdek, ko'pdan-ko'p o'rtahol xonadonlarning xonavayron bo'lishi ham ro'y berdi. Lekin bu kamchilik, xato va cheklanishlar bilan bir vaqtda, jamoa xo'jaligi o'zbek dehqoni muayyan qatlamining taqdirida, uning oyoqqa turishida, xo'jaligining tiklanishida ijobiy rol ham o'ynaganini e'tiborga olsak, doston o'zbek dehqoni tafakkuri, dunyoqarashi va yashash tarzidagi keskin o'zgarishlarning badiiy hujjati tarzida ahamiyatlidir. G'afur G'ulom butun umri davomida ko'pdan-ko'p she'rlar, dostonlar yozdi. Sho'ro siyosati mafkurasi tasirida el-yurtni yuksak ko'tarinkilik ruhida yashash va mehnat

qilishga chorladi. Yaxshilik, ezgulik, birodarlik, do'stlikni ulug'ladi. Ulug' maqsad va fikr yo'lida xalqni, ommani safarbarlikka da'vat qildi. Kelajakda katta umidlar bilan qarashga undadi. Bular uning asarlariga xos bo'lgan muhim xususiyatlardir. Mustaqillik davri o'tmish tarixiga yaqindan haqiqat ko'zgisida boqishni taqozo etgach, bunday nuqsonlar ma'lum bo'lib qoldi. Xuddi shunday hol uni partiya, ona Vatan, V.I.Lenin, Oktyabr haqidagi she'rlarida ham seziladi. Shu tufayli shoir ijodini zarracha kamsitmagan holda unga tanqidiy yondashishni taqozo etadi. 30-yillar G'afur G'ulom hikoya, ocherk, felyetonlar qatori "Netay", "Yodgor", "Tirilgan murda" kabi qissalarini ham o'z kitobxoniga taqdim etdi. Urushda qozonilgan g'alaba to'g'risida har kim har xil yozishi tabiiy hol. Kimdir bu g'alabani ko'tarinki ohang, ko'tarinki so'z bilan ifoda qiladi. Kimningdir ichiga sig'magan quvonchi g'alabani olqishlash shaklida qog'ozga to'kiladi. G'afur G'ulom ijodiy tafakkuriga faylasufona mulohazakorlik, kichik tuyulgan hayotiy detallardan katta umumlashmalar yasay olish xos edi. Bu noyob fazilatlar shoirning 1945-yilda fashizm ustidan qozonilgan g'alaba munosabati bilan yozgan «Vaqt» she'rida yaqqol ifodasini topdi. Shoir mazkur she'rda lahza(sekund)ning mohiyatiga nazar tashlaydi.

Darhaqiqat, yuzaki qaraganda, lahza nima? Ko'z ochib yumguncha o'tadigan fursat. Go'yo e'tiborga, diqqatga arzimaydi. O'z umrini poyonsiz deb o'ylaydigan aksariyat odamlar uchun lahzaning sariq chaqalik qimmatini bo'lmasligi ham mumkin. Biroq... Biroq shoir ijodiy tafakkuri butun insoniyat hayoti – uning quvonch-u tashvishlari, hatto qismati ham mana shu lahzalarga jo ekanini favqulodda misollar bilan isbotlab beradi:

Bir onning bahosini o'lchamoq uchun

Oltindan taroz-u, olmosdan tosh oz.

Hayotning abadiy qonuniyatlarini anglagan, his qilgan odam uchun behuda lahzaning o'zi yo'q va o'lishi ham mumkin emas. Zero, inson necha yil umr ko'rishidan qat'i nazar, bu umrning asosini mana shu lahzalar tashkil qiladi. Buyuk qahramonliklar ham, isnodli sharmandaliklar ham ayni lahzalar oralig'ida ro'y beradi. O'zini, o'zligini unutgan odam bir lahzada yo'l qo'ygan xatosi, qo'rqqoligi, shijoatsizligi tufayli umrbod yuzi qora bo'lib qolishi hech gap emas. Va aksincha, Amir Temurdek, Jaloliddin Manguberdidek, Bobur Mirzodek bobolarimizning shonshavkati aynan bir lahzada qabul qilgan qat'iy qarorlari, biror lahza unutmagani – yurtga sadoqatlari tufayli abadiyatga daxldor bo'ldi.

Endi ayting-chi, ular kabi jo'mard insonlarning umri, faoliyati, millat taraqqiyotiga qo'shgan hissalarini oltindan yasalgan tarozi-yu olmosdan qilingan tosh bilan o'lchab bo'ladimi?!

G'alaba amri-la mag'lub nemisning

Generali qo'l qo'ydi.

Uch sekund faqat...

Shu mal'un imzoda odamlar o'qir

Million yil fashistning umriga la'nat.

Ikkinchi jahon urushining barcha tafsilotlari, u keltirgan kulfatlar to'g'risida batafsil ma'lumot olasiz. Hozir esa shuni eslatib o'tamizki, insoniyat tarixidagi eng dahshatli hodisa bo'lgan bu urush 70 milliondan ortiq kishining umriga zavol bo'ldi. Minglab shahar va qishloqlar, Yevropa, Afrika, Osiyo qit'asining eng noyob madaniy yodgorliklari shu urush olovida kuyib kulga aylandi. Qanchadan-qancha bolalar o'z ota-onalaridan, ota-onalar esa farzandlaridan

ajrab, hayotlari sarson-sargardonlikda o'tdi.

Bu urush yetkazgan jarohatlar o'zni hali-hamon bitgani yo'q. Hali-hamon Yaponiyaga tashlangan atom bombalarining zahri avlodlar tan-u joniga, atrofmuhitga ozor bermoqda... Holbuki... Holbuki, fashizmning o'z mag'lubiyatini tan olib, german armiyasining so'zsiz taslim bo'lishi to'g'risidagi hujjatga imzo chekishi uchun uch sekund vaqt talab qilindi, xolos. Biroq shu uch sekundga yetib kelish insoniyatga qanchalar qimmatga tushganini bir tasavvur qilib ko'ring-a. Darvoqe, 1939-yil 1- sentabrda Ikkinchi jahon urushini boshlash – Polshaga hujum qilish to'g'risidagi qarorni qabul qilishga ham, balki uch sekund kifoya qilgandir. Shoir dunyoda shuhrat qozonmoqning yo'llari ko'p ekani, biroq bu yo'llarning biri odamni sharmandali shuhratga olib kelsa, boshqasi abadiyatga olib borishini quyma satrlarda eslatadi:

Shuhrat qoldirmoqqa Gerostratdek Diana ma'budin yoqmoq shart emas.

Darhaqiqat, o'z davrining buyuk mutafakkirlari goh ilm-fan, goh san'at, goh falsafada ulkan natijalarga erishayotganidan ichi kuygan Gerostrat degan kimsa odamlar uni ham doimiy yodlab-yo'qlab turishlarini xohlab qoladi. Bunga arziqli biror ish qo'lidan kelishiga ko'zi yetmay, ulkan buzg'unchilik, vahshiylikka qo'l uradi. Dunyo arxitekturasi nuyob namunalaridan biri bo'lgan Diana ma'bad – ibodatxonasiga o't qo'yadi. Qarabsizki, hali-hamon Gerostratning nomini ham insoniyat eslashga majbur.

Lekin bu eslov-yo'qlovning qimmat va ahamiyati qanchalik? Hamma gap mana shunda!

Shukrki, insoniyatga xotira degan ulkan saboq – xazina ato etilgan. U o'zining baxt-u iqboli yo'lida kurashgan ulug'lar bilan birga, odamzod tirikligiga xavf-u qo'rqinch solgan yovuz kimsalarni ham unutmaydi.

Ularning qilmishlari takrorlanishidan ogoh turadi. Faylasuf shoir G'afur G'ulom o'zining mo'jazzina asari – «Vaqt» she'ri bilan lahzaga abadiy haykal qo'ydi, deb bemalol aytsak bo'ladi! Bu she'r bag'riga jo bo'lgan mantiq va ma'no, san'at va sayqal ko'lamini anglamoq uchun, qarangki, asrlar talab qilinmoqda. Chinakam she'riyatning, adabiyotning mo'jizaviy qudrati, balki mana shundadir.

Xulosa

G'afur G'ulom so'nggi nafasigacha ijod etdi, mehnat qildi. Uzoq yillar davomida O'zbekiston Fanlar akademiyasining til va adabiyot institutida ilmiy xodim bo'lib ishladi. Badiiy asarlar bilan bir qatorda ko'plab ilmiy maqolalar yozdi, tarjimalar qildi. O'zining asarlari ham o'nlab tillarga o'girildi. 60 yillik yubileyi munosabati bilan unga "O'zbekiston xalq shoiri" faxriy unvoni berildi. Shoirning ko'pgina asarlari qardosh xalqlar, Osiyo va Yevropa tillariga tarjima qilingan. O'zbek she'riyatining otashin jarchisi, ulkan san'atkori G'afur G'ulom milliy adabiyotimizning rivojiga katta hissa qo'shgan adibdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar "Mahkamasining 502-son 24.08.2020.
2. Atoqli adiblar va mutafakkirlarimiz ijodiy merosini yoshlar o'rtasida targ'ib qilish hamda adiblar xiyobonidan samarali foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori //https://lex.uz/docs/4966477;
3. 22.09.1994. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi//
4. https://lex.uz/docs/-111453 ;
5. X.T.Odilqoriyev. Darslik. "Davlat va huquq nazariyasi" Toshkent.Sharq-2009, Adolat—2021;

6. G'afur G'ulom. Tanlangan asarlar. Nazm va nasr.-T.: G'afur G'ulom
nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2021. - 352 b.



INNOVATIVE
ACADEMY